



INGLIZ TILINI O'RGANISHDA KREATIV PEDAGOGIKANING O'RNI.

B.J.Muhammadiyev

TDPU, o'qituvchi

M.Xolmatova

TDPU, talaba

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15295517>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2025

Accepted: 20th April 2025

Published: 28th April 2025

KEYWORDS

kreativ pedagogika, tanqidiy fikrlash, motivatsiya, interfaol mashg'ulotlar, vizual materiallar, xalqaro sertifikatlar

ABSTRACT

Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganishda kreativ pedagogikaning ahamiyati tahlil qilinadi. Kreativ pedagogika-bu ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga qaratilgan yondashuv bo'lib, ta'lim oluvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, yangi chet tilini o'rganish uchun motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Maqolada kreativ pedagogikaning asosiy usullari, jumladan, interfaol mashg'ulotlar, turli xil o'yin texnologiyalari va vizual materiallardan foydalanish orqali ingliz tilini o'zlashtirish samaradorligi yoritiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ingliz tiliga bo'lgan qiziqish bilan bir qatorda talab ham ortib bormoqda. Chunki til o'rganish insonlarga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Bundan tashqari, muvaffaqiyat kalitini qo'lga kiritishga yordam beradi. Hammamizga ma'lumki, har qanday yangi bilim o'qituvchilar orqali o'quvchilarga yetkazib beriladi. An'anaviy o'qitish usullari ko'pincha o'rganuvchilar uchun zerikarli bo'lib, tilni o'zlashtirish jarayonini qiyinlashtirishi mumkin. Shu sababli, kreativ pedagogika (ijodiy yondashuvlar) ingliz tilini o'rgatishda muhim o'rin tutadi. Bir qancha ingliz tili mutaxassislari ingliz tilini o'rganishni yangi metod va yo'llarini hayotga tadbiiq qilishmoqda. Bu albatta chet tillarni o'qitish samaradorligini yanada oshiradi. Kreativ pedagogika – bu ta'lim jarayonida ijodiy metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish va bilimni yanada samarali o'zlashtirishga yordam beruvchi yondashuvdir. Bu usul faqatgina ma'lumot berish bilan cheklanmay, balki talabalarni faol ishtirok etishga, ijodkorlik bilan fikrlashga va mustaqil o'rganishga undaydi. Ingliz tilini o'rganishda kreativ pedagogikaning afzalliklariga to'xtaladigan bo'lsak, birinchi navbatda, qiziqishni oshiradi ya'ni o'quvchilar zerikmasliklari uchun o'yinlar, interaktiv mashg'ulotlar va vizual materiallar ishlatiladi. Ikkinchidan, nutq faolligini kuchaytiradi. An'anaviy grammatik mashqlarga qaraganda, suhbat, munozara, hikoya yaratish kabi faol usullar o'quvchilarning so'z boyligini oshirishi va ularni mustaqil gapirishiga yordam beradi. Bundan tashqari, egallangan bilimlar xotirada uzoq muddat saqlanadi. Guruhlarda ishlash, muammolarni hal qilishga qaratilgan yondashuvlar o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi va ularni jamoaviy fikrlashga undaydi. O'quvchilarni rag'batlantirish uchun ballar, darajalar va mukofotlar tizimidan foydalanish. Masalan, inglizcha so'zlarni yodlash uchun «Quizlet» yoki «Kahoot» kabi o'yin platformalaridan foydalanish mumkin. Teatr va rolli o'yinlar orqali esa talabalar har xil vaziyatlarni sahnalashtirib, o'zlarini ingliz tilida gaplashish muhitida his qilishlari mumkin. Bu usul tabiiy muloqotni rivojlantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, videolar, infografikalar, kartochkalar va interaktiv ilovalar orqali o'rganish o'quvchilarning vizual xotirasini mustahkamlaydi. Masalan, «BBC Learning English» yoki «TED-Ed» videolari foydali bo'lishi mumkin. Bu kabi usullar orqali ingliz tilini o'rganish qiziqarli bo'ladi. Chet tilini o'rganishda motivatsiya muhim rol o'ynaydi. Kreativ pedagogika yuqori motivatsiyani o'z ichiga oladi. U orqali o'quvchilarning til o'rganish jarayoniga bo'lgan qiziqishi oshadi va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari kengayadi. Motivatsiyani oshirish uchun birinchi navbatda, aniq maqsadlarni belgilash lozim. Til o'rganishdagi aniq va o'lchab bo'ladigan maqsadlar o'quvchilarga yo'nalish beradi va ularni rag'batlantiradi. Masalan, ma'lum bir muddat ichida yangi so'zlar sonini oshirish yoki muayyan mavzuda suhbatlashish qobiliyatini rivojlantirish kabi maqsadlar qo'yish mumkin. O'quv jarayonini qiziqarli qilish: interfaol metodlar, rolli o'yinlar va guruhviy loyihalar orqali darslarni jonlantirish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bu usullar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularni til o'rganishga undaydi. Madaniyat bilan tanishish: til o'rganish jarayonida o'rganilayotgan til mamlakatining madaniyati bilan tanishish o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi. Bu orqali ular tilni o'rganishga bo'lgan ehtiyojni chuqurroq his etadilar. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish: onlayn platformalar, mobil ilovalar va interaktiv dasturlar yordamida o'quvchilar mustaqil ravishda til o'rganish jarayonini boyitishlari mumkin. Bu vositalar o'quvchilarga o'z vaqtida va o'z sur'atida o'rganish imkonini beradi. Muvaffaqiyatlarni nishonlash: o'quvchilarning kichik yutuqlarini ham e'tirof etish va nishonlash ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va keyingi bosqichlarga motivatsiya beradi. Ingliz tilini o'rganish uchun bir qancha usullar va texnikalar mavjud. Jumladan, Rosetta tosh usuli- tushunish va eslab qolishning oson va tezkor usuli hisoblanadi. Ortiqcha grammatik qoidalar yo'q. Ingliz tilini xobbi bilan shug'ullanayotgandek bemalol o'rganasiz. Darslar suhbat shaklida o'tkaziladi. Dastur oddiydan murakkabgacha tuzilgan. Ingliz alifbosi bilan tanish bo'lmaganlar uchun ham qiyin bo'lmaydi. Eng muhimi, metodologiya hech qanday tarjima va qoidalarsiz tuzilgan. Ingliz tilini o'rganish orqali juda ko'p imkoniyatlarga ega bo'lish mumkin. Birinchi navbatda, ta'lim va bilim olish bo'yicha dunyoning eng nufuzli universitetlarida tahsil olish imkoniyati (Oxford, Harvard, MIT va boshqalar). Ko'plab ilmiy maqolalar, darsliklar va onlayn kurslar asosan ingliz tilida bo'ladi (Coursera, Udemy, edX). Ish va biznes imkoniyatlari bo'yicha esa xalqaro kompaniyalarda ishlash imkoniyati; masofaviy (freelance) ishlarda ishtirok etish va xorijiy mijozlar bilan ishlash; dunyo bozorida biznes yuritish va xalqaro sheriklar bilan aloqa qilish; sayohat qilish va yangi madaniyatlarni o'rganish orqali dunyoning ko'plab davlatlarida til muammosiz muloqot qilish; mahalliy aholining madaniyatini chuqurroq tushunish; sayohat davomida yo'l-yo'riq va ma'lumotlarni oson tushunish.

Internet va media resurslaridan samarali foydalanish. Internetdagi ma'lumotlarning katta qismi ingliz tilida bo'lib, bu tilni bilish orqali ko'proq resurslardan foydalanish mumkin. Mashhur filmlar, seriallar va qo'shiqlar asosan ingliz tilida yaratiladi, bu esa tilni bilish orqali ularni asl holatda tushunish imkonini beradi. Shaxsiy rivojlanish va kognitiv qobiliyatlarni oshirish. Yaxshiroq eslab qolish qobiliyati: Chet tilini o'rganish yangi ma'lumotlarni eslab qolish qobiliyatini yaxshilaydi, bu esa o'qish vaqtini kamaytiradi. Bir nechta tilni biladiganlar bir vaqtning o'zida bir nechta vazifalarni bajarishga moyil bo'ladi. Turli madaniyatlarni o'rganish: ingliz tilini bilish orqali turli xalqlarning madaniyati, urf-odatlar va tarixi bilan tanishish mumkin. Adabiyot va san'at asarlarini o'qish: ingliz tilidagi asarlarni aslida o'qish orqali muallifning asl fikrlarini tushunish va bahramand bo'lish imkoniyati paydo bo'ladi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish: onlayn kurslar va platformalar, ingliz tilini bilish orqali Coursera, edX kabi platformalardagi kurslardan foydalanish mumkin. Interaktiv o'quv dasturlari: til o'rganish jarayonida zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Ingliz tilini o'rganish nafaqat kasbiy va ta'limiy

imkoniyatlarni kengaytiradi, balki shaxsiy rivojlanish va dunyoqarashni boyitishga ham katta hissa qo'shadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ingliz tilini o'rganish bugungi kunda shaxsiy va professional rivojlanish uchun muhim vosita hisoblanadi. Bu til global ta'lim, biznes, texnologiya va madaniyat sohalarida cheksiz imkoniyatlar yaratadi. Ingliz tilini bilish orqali xalqaro darajadagi bilim va tajribaga ega bo'lish, dunyo bo'ylab muloqot qilish, yangi ish va biznes imkoniyatlarini topish, zamonaviy texnologiyalar va internet resurslaridan samarali foydalanish mumkin. Shuningdek, ingliz tili insonning fikrlash qobiliyatini oshirib, dunyoqarashini kengaytiradi hamda yangi madaniyatlar bilan tanishish imkonini beradi. Bu esa zamonaviy dunyoda raqobatbardosh bo'lish va muvaffaqiyat qozonishning asosiy omillaridan biri sanaladi.

Adabiyotlar:

1. Закирова Ф. М., Позилова Ш. Х. Креативное обучение на курсах повышения квалификации преподавателей информатики высших образовательных учреждений //Science for Education Today. 2018. Т. 8.-№. 3. С. 23-36
2. Крючков Г. Болонский процесс как гармонизация Европейской системы высшего образования. //Иностранные языки в учебных заведениях. – Педагогическая печать, 2004.
3. Xatamova N.Q., Mirzayeva M.N. "Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar" (uslubiy qo'llanma) , Navoiy. 2006,40 bet

INNOVATIVE
ACADEMY